



CHINGIZ AYTMATOVNING “BIRINCHI MUALLIM” QISSASIDA USTOZ OBRAZI

¹ Roziya Eshmurodova Siddiq qizi, ² Xushanov Alisher Oydin o'g'li

¹ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227683>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

Muallim, ustoz, qissa, Chingiz Aytmatov, asar, bog'bon

ABSTRACT

Ushbu maqolada, qirg'iz va o'zbek xalqining sevimli yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Birinci muallim" asarida qanday qilib ustozlar paydo bo'lgani va ko'paygani haqida so'z yuritiladi.

Butun dunyoga mashhur yozuvchilardan biri Chingiz Aytmatov Qirg'izistonning Talas vodiysida tug'ilib o'sgan. Ijodkorning bolaligi Shakar ovulida oddiy zaxmatkash odamlar orasida o'tdi. U hayot yo'lida qanchalik azob-u mashaqqat chekmasin o'z orzu va maqsadlari yo'lida hech qachon to'xtab qolmadi. Turli asar, qissa va hikoyalar yozdi. Bu asarlarni u o'zidan shunchaki to'qigan bo'lishi mumkin emas. Asar va qissalarida mehr-muhabbat qishloq insonlarining soddadilligi ularning qanchalik or-nomusliligi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Qisqa qilib aytganda, Chingiz Aytmatov asarlarida oddiy xalqni tasvirlaydi. Ular qanchalik pok, sofdil, zahmatkash va shu bilan birga qadimiy urf-odatlarini, or-nomus har doim ustun turishini ifodalab bergan. Bu ijodkorni tanimagan inson bo'lishi mumkin emas. Bu ulug' zod nafaqat Qirg'iz xalqi balki, o'zbek xalqining ham iftixorli farzandlaridan biridir. Chingiz

Aytmatovning asarlarini barcha sevib o'qiydi. Nafaqat o'qiydi balki katta qiziqishlar bilan tomosha ham qiladilar. Uning "Sarvqomat dilbarim", "Bo'tako'z", "Birinci muallim", "Jamila", "Alvido, Gulsari" va boshqa asarlari o'zbek va chet el teatrlarida sahnalashtirilgan. Chingiz Aytmatov shunday bir qissa yaratdiki, bu qissani o'qib yoshligimizdan bizga ta'lim-tarbiya berib charchamaydigan jonajon ustozlarimizni eslamasdan ilojimiz yo'q. Bu qissasini 1962-yil yozib tamomladi va uni "Birinci muallim"-deb nomladi. Shu vaqt bizda bitta savol tug'iladi "Nahotki, Chingiz Aytmatov birinci muallimlarning qanday paydo bo'lganini bilsa".

Chingiz Aytmatov bu qissada qirg'iz xalqi va ularning olis qishloqlariga ta'lim-tarbiya qanday qilib yetib borganligi, xalq bu yangilikni qanday kutib olganligi haqida so'z boradi. Bu voqea 1924-yil Qirg'izistonning olis qishloqlaridan biri,



Kurkure nomli qishloqda yuz beradi. Ota-onasi vafot etgan qo'lida bir tiyin puli bo'lmagan oddiy komsomolda o'qib kelgan Duyshen ismli yigitning bolalarga qanday qilib ta'lim-tarbiya berganligi, ularni vatan xizmatiga tayyor buyuk inson qilib yetishtirish uchun qancha qiyinchiliklarni ko'rganliklari haqida so'z boradi. Duyshen boydan qolgan eski otxonani maktab holiga keltirdi, bolalar uchun daftar- ruchkalarni shahardan olib keldi. Yerga poxol to'shab, bolalar yozishga qiynalmasligi uchun taxtacha yasadi. U qishi bilan bolalarni o'zi uy-uyalaridan olib chiqar, ular bilan birgalikda maktabga borardi. Qish kuniga deb chekka joydan pech o'rnatdi va shu zaylda o'qishni qo'lidan kelgancha davom ettirdi. Bolalar katta-kichik hammasi birdek o'qirdi. Uning o'quvchilaridan yoshi kattasi Oltinoy bo'lib bilimga chanqoq qiz edi. Uning bu ishlarini oddiy xalq o'yin deb nazariga olishmaydi. Unga yordam berish o'rniga ortidan tosh otadi. Oddiy xalq oxir-oqibat o'qish nima uchun kerakligini tushunib yetadi, ammo bu vaqtda bir qizning huquqi poymol bo'lgan bo'ladi. Duyshen Oltinoyni amakisi va zolim kelinoyisining qo'lidan qutqarib, uni shaharga o'qishga jo'natadi. Nahotki insonlarga bir haqiqatni isbotlash uchun kimdir qurbon bo'lishi kerak bo'lsa. Chingiz Aytmatov bu asariga shunday fikr yozib qoldirdi: „Bu asarda Qirg'izistonning olis qishloqlariga ta'lim-tarbiyaning yetib borishi haqida so'z yuritiladi“¹ deydi. Demak, Chingiz Aytmatov ustoz kasbi qanday qilib chekka qishloqlarga tarqalgani va buni xalq qanday kutib olgani haqida o'z fikr-mulohazasini bir qissa qilib yaratgan desak adashmagan bo'lamiz. Bu qissa ustoz kasbi dunyoga qanday qilib yoyilgani balki, ustozlarning

hayotimiz davomida qanchalik katta ahmayatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan. Hozirda bizga o'qish uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Nafaqat o'qishimizga balki, o'qitishimizga ham imkoniyatlar bor. Hozirgi bolalar partastulda o'tirishadi, o'zlari hoxlagan daftar-ruchkadan foydalanadi. O'qituvchilarga ham o'quvchilarga ham tayyor darsliklar, kitoblar bor. Prezidentimiz tashakkuri bilan katta kutubxonalar ochilgan, maktablarga, kutubxonalarga yangi kitoblar olib kelishyabdi. Yildan-yilga o'qish uchun sharoitlar yaxshilanmoqda. Chingiz Aytmatov nega aynan bu qissasini „Birinch muallim“ deb nomladi degan savolga esa shunday javob berishimiz mumkin. Chingiz Aytmatov ustozlar ham o'zining mehnati, izlanishlari orqasidan paydo bo'lgani, barcha qiyinchiliklarga chidab, ularni sabrmatonat bilan yengani uchun shunday nomlagan. Bu yigit o'zi zo'rg'a harf taniydi, lekin bolalar uni shunday bir inson sifatida ko'rishadiki, butun dunyoda go'yo bunday inson yo'qdek. Bunday ta'riflanishiga Duyshen majburlamadi shunchaki bolalarga umid bera oldi, xolos. Demak, ustozlar hayotimizga umidlar orqali kirib kelgan va shunday paydo bo'lgan deya olishimiz mumkin. Ustozlar bolalar uchun, balki kelajak uchun, jamiyat uchun qanchalik kerakligini bu qissa orqali bilib olishimiz mumkin.

Bu qissadan shunday xulosa chiqadiki, ustozlar hayotimizdagi buyuk insondir. Nafaqat buyuk balki, so'nmas umidlarni kichkina qalbimizga ekuvchi bog'bonimiz hamdir. Ustozlar bor ekan hayot mana shunday umidlar bilan yuksaklikka erisha oladi deb bemalol ayta olishimiz mumkin. O'zbekistonimizda hozir o'qish uchun

¹ Xabar.uz/uz/madaniyat/zamondan-ozgan-adib



barcha shart-sharoitlar yetarli. Bu imkoniyatlar albatta kelajak avlodlar uchun. Bizda o'qish majburiy, hatto hozirda maktabgacha ta'limga borish ham majburiy. Bu hammasi kelajagimiz porloq bo'lishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlardir. Bu imkoniyatlar nafaqat O'zbekistonda balki butun mamlakatda yaratilmoqda. Har yili o'quv ishlari bo'yicha yangi qonun-qoidalar yaratilyabdi. Yosh kadrlar, ustozlar ko'paymoqda. Tajribali ustozlar qancha ko'paysa kelajagimiz ham shunchalik porloq bo'ladi. Barcha davlatda o'qitish tizimi har xil. Ammo ularning maqsadi

bitta. Yoshlar uchun yangi maqsad, umidlar berish va bu maqsadlariga osonroq yetishishi uchun qo'llaridan kelganch imkoniyatlar yaratilmoqda. Biz baxtli yosh avlodlar nima uchun mana shunday imkoniyatlardan foydalanmasligimiz kerak? Bizning hayotimizni yaxshilash uchun berilayotgan imkoniyatlarga befarq bo'lmaylik. Aziz insonlar, yosh o'quvchilar o'qishimiz uchun zahmat chekayotgan insonlarning mehnatini qadrlaylik va ularning qilgan yaxshiliklari uchun albatta yaxshi javob berishga harakat qilaylik!!!

References:

1. Chingiz Aytmatov, "Birinchi muallim" www.ziyouz.com kutubxonasi
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/ChingizAytmatov>